

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI
VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

“XALQ CHOLG'ULARIDA IJROCHILIK KAFEDRASI”

DJUMANIYAZOV UMRBEK MAXSUDOVICH

**“Xorazm cholg'u ijrochiligida
mizrobli cholg'ularning tutgan o'rni”**

“5150700 – Cholg'u ijrochiligi (xalq cholg'ulari)” yo'nalishi

Bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy-ijodiy rahbar:
Dotsent O.F.Nazarov

Toshkent-2016**Mundarija**

	Kirish	3
I BOB.	XORAZMDA MUSIQA SAN'ATINING RIVOJLANISH TARIXI	6
1.1.	Xorazm cholg'u ijrochilik san'ati taraqqiyoti	6
1.2.	Xorazm musiqasida cholg'u kuylarining o'rni	20
II BOB.	XORAZM CHOLG'U IJROCHILIGIDA MIZROBLI CHOLG'ULARNING TUTGAN O'RNI	28
2.1.	Mizrobli cholg'ular va ularning tasniflanishi	28
2.2.	Mashhur ijrochi-sozandalar	36
2.3.	Tajriba-sinov (tanlov-festivallar va konsert-ijrochilik) ishlari va ularning natijalari:	42
	XULOSA VA TAKLIFLAR	47
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	50

Kirish

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi: Vatanimiz mustaqillikka erishgach, jamiyat ijtimoiy hayotida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, huquqiy jamiyatni barpo etish maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayoni mazmuniga milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini singdirish, o'quvchilarni milliy qadriyatlar, an'analar va ko'p asrlik musiqiy meros vositasida estetik tarbiyalash muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Davlatimiz hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan musiqiy ta'lim tizimini yanada takomillashtirishiga qaratilgan qarorlar hamda farmoyishlar mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy olami va madaniy saviyasi yuksaltirish yoshlarimizning milliy va jahon musiqa madaniyatining yuksak namunalaridan keng bahramand bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va shu asosida musiqiy ta'limni yanada rivojlantirish, bu borada kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalar ko'rsatilgan. Musiqa san'ati borasida amalga oshirilayotgan hayrli ishlar bolalarda kuy-qo'shiqqa san'atga muhabbat uyg'otib, ularda cholg'uchilik ijrochilik kabi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiradi, shuningdek musiqa san'ati asosida o'quvchi shaxsining ma'naviy, ahloqiy madaniyatini, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirib, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stiradi, fikrlash darajasini kengaytiradi va navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Shu jihatdan xalq cholg'ularida jahon mumtoz musiqa merosining ijro etilishi o'zbek sozandasining bilim va tafakkuri dunyoqarashini kengaytiradi uning ijro mahoratining keng ko'lamli va yuqori darajada bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi. Bugun mamlakatimizda manan boy, yetuk barkamol avlod tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Yosh avlod kelajakda O'zbekiston dovrug'ini butun dunyoga tanitishda yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Musiqa ijrochilari har

tomonlarga yetuk va yuqori ijrochilik mahoratiga ega bo'lishida ularning o'zbek musiqa merosini chuqur o'rganishi bilan birga dunyo musiqa san'ati bilan yaqindan tanishishlari, ijro etishlarining qanchalik ahamiyatli ekanligini o'zbek musiqa ijrochilari, sozandalarining dunyo musiqasida e'tirof etilayotganligidan bilib olish mumkin. Bunga xalqaro tanlovlarda sozanda-ijrochilarimiz tomonidan qo'lga kiritilayotgan ko'plab yutuqlarni misol keltirish mumkin. Yosh avlodni insonparvarlik, vatanga muhabbat, bilim va ma'rifatga intilish ruhida tarbiyalash, asosiy omillardan biri bo'lib, ular musiqa ta'limini zamonaviy talablar asosida tashkil qilish va shu bilan birgalikda o'quvchilarni estetik tarbiyalashni taqozo qiladi.

Jumladan, Xorazm cholg'u musiqasining tadrijiy taraqqiyoti yo'lida doimiy o'zgarishlar, rivojlanishlar, yangiliklarni kuzatishimiz mumkin. Musiqa san'ati boshqa musiqalar bilan boyib yangi – yangi asarlar, turli yo'nalishlarning maktablari vujudga keladi. Xorazm musiqasida cholg'u ijrochiligida alohida o'rin tutadi. Ulatdan dutor, tanbur, rubob va tor cholg'ularini alohida ta'kidlash mumkin. Ushbu cholg'ularning Xorazm cholg'u musiqasida tutgan o'rnini ularning o'ziga xos vazifalarini uslubiy jihatdan o'rganish, tadqiq qilish uncha ko'p o'rganilmaganligi bois ushbu mavzu o'ziga xos dolzarblik kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ish maqsadi: Xorazm cholg'u musiqasini mizrobli cholg'ularda ijro uslubiyotini ishlab chiqish;

Mavzuning o'rganilganlik darajasi va qiyosiy tahlil: Shu nuqtayi-nazardan "Xorazm musiqiy tarixchasi" risolasi haqida to'xtalib o'tsak. Bu risola 1925-yilda Xorazmda o'sha davrning yirik san'atshunoslari bo'lmish, Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf Devonzoda tomonidan arab alifbosida (eski o'zbek yozuvi) Xorazm shevasida yozilgan bo'lib, uning hajmi 56 sahifadan iboratdir.

Har holda bu asar Xorazm musiqasi tarixi haqida to'la ma'lumot bermasada, unda Xorazm musiqasining bundan yarim asr ilgari ahvoli haqida anchagina ma'lumotlar berilgan. Oldindan Xorazmda dutor va tanbur maqomlari bo'lganligi hammaga ma'lum. Bugungi kunda tanbur chizig'ining o'ndan ortiq nusxalari ma'lum. Ularning

aksariyati maqom ilmidan yaqindan xabardor bo'lgan ixtisosli xattotlar tomonidan bitilgan.

So'nggi yillarda tanbur chizig'ini bevosita maqom amaliyoti bilan qiyoslab o'rganishga kirishgan Xorazmlik sozanda Ozod Bobonazarov bo'ldi. Uzoq yillar davomidagi izlanishlar evaziga, u birmuncha muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. Yangi topilgan "Hazorasp nusxasi" ustida Urganch universitetida musiqashunos Botir Raximov rahbarligida bir qancha malakali yosh maqomchilar Rustam Boltaev, Samandar Xudoyberganov, Matrasul Matyoqubovlar ilmiy-ijodiy izlanishlarni boshlagan. Ularning samarasi Xorazm maqom an'analari haqidagi taassurotlarni ancha kengaytirishga imkon beradi. Dutor maqomlari hali keng ko'lamda va izchil o'rganilgan emas. Tanbur chizig'ining yangi topilgan nusxasi asosida endigina bir Urganjiy maqomining jonli ijrosi tiklanib, Rustam Boltaev, Samandar Hudoyberganov, Matrasul Matyoqubov va Botir Rahimovlar tashabbusi bilan tayyorlangan maxsus konsert dasturi 2002-yil 18-Dekabrda O'zbekiston Davlat Konservatoriyasida soha mutaxassislari diqqatiga havola etilib, yuqori baholandi. Dastlabki taassurotlar kutilgandan ham ziyoda. Ulardagi mumtoz tarovat muxlislarni beixtiyor lol qoldirdi.

Tadqiqot obyekti. Xorazm maqom ansambli faoliyati, konsertlar turli madaniy – ma'rifiy tadbirlar.

Tadqiqot predmeti. Xorazm cholg'u musiqa ijrochiligidagi mashhur sozandalar ijodiy faoliyati.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.

Cholg'u ijrochiligi o'rganildi. Shu bilan birga mizrobli cholg'ular ahamiyati tadqiq qilinib, ularning nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy ahamiyati

- Cholg'u ijrochiligidagi mizrobli cholg'ularning o'rni belgilab berildi.
- Ijro uslublari aniqlab berildi.
- O'quv jarayonida, konsert ijrochiligidagi mazkur ishda keltirilgan ma'lumotlardan qo'shimcha manbaa sifatida foydalanish mumkin.

I BOB. XORAZMDA MUSIQA SAN'ATINING RIVOJLANISH TARIXI

1.1 Xorazm cholg'u ijrochilik san'ati taraqqiyoti

Qaysi xalqning madaniy tarixi qanchalik qadimiy bo'lsa, o'sha xalqning ahloqiy go'zalligi, urf – odat rang – barangligi ko'lami keng, ta'lim – tarbiya tizimi ildizlari ham shunchalik chuqur bo'ladi. Chunki, har qanday madaniyat, ahloq, urf – odat va ta'lim – tarbiya insoniy faoliyatning kechinmalari, sinovlari, boy hayotiy tajribalari asosida yuzaga keladi va maqbullari avloddan – avlodga o'tadi.

Qadimgi Xorazmdan “Ipak yo'li” ning o'tishi, Sharq bilan G'arbning bog'lanishi vohaning iqtisodiy va madaniy rivojiga ta'sir etgan albatta. Biz Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'a, Ayoqqal'a, Burgutqal'a, Jonbosqal'a, Qirqqizqal'a, Norinjanqal'a, Ellikqal'adan arxeologik qazish paytida topilgan voqa antik davri madaniyati va san'atiga oid yodgorliklarga hamda qadimiy qo'lyozmalardagi fikrlarga asoslanib shuni aytib o'tmog'imiz kerakki, Xorazm hamma davrlarda jahonning eng yirik madaniy markazlaridan biri sanalgan. Bu qadimiy madaniyat hatto bugungi kunda Yevropada antik dunyo deb atalib kelayotgan yunon va rim madaniyati bilan bir qatorda turadi. Zotan, Xorazmdan al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Iroq, Umar az Zamahshariy, Umar Chag'miniy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Haydar Xorazmiy, Hofiz Xorazmiy, Munis Xorazmiy, Ogahiy kabi olim – u fozillarning, shoir u adiblarning yetishib chiqqanligi bejiz emasdir. Binobarin, germaniyalik tarixchi olim Herder bu haqida shunday deb yozadi: “Yevropalik birorta xalq o'z yozuvini o'zi kashf etgan emas, ispanlar yozuvi ham Osiyodan olingan; Shimoliy va G'arbiy Yevropa madaniyati yunon-rumo – arab urug'idan unib chiqqandir... Sharqliklar algebrani dunyoga keltirdilar, inson qo'lga tabobat sirlarini ochmoqqa kalit tuqazdilar... Fizikaning barcha bo'limlarini shu kalit yordamida ochdilar va bu kalit, asrlar davomida amalda qo'llalini kelmoqda...”. Haqiqatdan ham qadimgi Yunon, Hind, Rim, Chin donishmandlari qatori Markaziy Osiyolik jumladan, xorazmlik allomalarning fan va madaniyat oldidagi buyuk xizmatlarini horijliklar

bizdan ko'ra ko'proq e'tirof etishadi. Ayniqsa, Haydar Xorazmiyning she'r va g'azallarida Xorazmiyning "Muhabbatnoma" sida 12 maqom nomlarining aks etishi, hazrat Navoiyning "Sab'aiy sayyor" dostonidagi yettinchi, xorazmlik musiqashunos tilidan aytilgan "ilmi advor" ta'rifi, Muhammadniyoz Nishotiyning "Xusni dil" dostonidagi o'sha davrda Xorazmda mavjud musiqa cholg'ulari haqidagi she'riy til bilan ifodalangan ma'lumotlar bu o'lkada 12 maqom negizlari qadimdan mavjud bo'lganligiga shubha qoldirmaydi.¹

Ushbu ma'lumotlarga tayangan holda shuni aytishimiz mumkinki qadimdan Xorazmda xalq orasida musiqani o'zlariga bir hunar, kasb qilib olgan kishilar ko'p bo'lgan. Xorazmning Ko'hna Urganch shahrida minglab odamlar dutor xarragini tayyorlab sotish orqali oila tebratganlar. Albatta, bu raqam Xorazmning nufuziga ko'p ko'rinishi mumkin, lekin, o'sha davrda Ko'hna Urganch shahri aholisi bir yarim million bo'lganini hisobga olsak, bu raqam unchalik ham ishonarsiz deb bo'lmaydi. O'sha zamondagi asboblardan bizga ochiq bir sur'atda ma'lum bo'lgani dutor bo'lib, boshqa sozlar to'g'risida yozma ma'lumotlar bo'lmasada, o'sha zamondagi cholg'u asboblari, umuman Turkiy urug'lar orasida qo'llanilgan, cholg'u asboblari bo'lganligi muqarrardir.

Xorazmshoh Ma'mun davrida ilm-fan, san'at ancha rivojlangan va u tashkil qilgan ilmlar uyi Ma'mun Akademiyasi deb nomlangan. Sulton Muhammad Olovuddin Xorazmshoh zamonida navbalar (navba arabcha – kuylar turkumi, navbat bilan chalinadigan tartiblashtirilgan asarlar) chalish an'anasi rasmiy tus olgan. Buning sababi Xorazmshohning o'zi ud cholg'usida mashq qilish va shatranj o'ynashni juda xush ko'rar, udda navbalar chalib o'zini sozlagandan keyingina arzxonaga chiqib fuqarolar arzinini tinglar ekan. Bu davrda turli hunarmandlar va kasb egalarining do'kon(forscha-"manzil", "qo'nimgoh", "uyushma") lari vujudga kelishi bilan Mehtarlik (mehtar-forscha "boshliq", "zobit", "rahbar") qo'shlari, guruhlar faoliyati ancha rivoj topgan. Ularning tarkibi uch nafar (surnay, karnay, doira) dan to o'n besh nafargacha bo'lgan sozandani o'z safiga birlashtirgan. Ular ochiq havoda chalinadigan cholg'u ijrochilaridan iborat bo'lgan Mehtarlarning vazifasi kuchli

¹ S. Hasanov "Xorazm – ma'naviyati olam ko'zgusi"

musiqiy tovush-sas, dabdaba va as'asa bilan dushmanni daxshatga solish, lashkarlarga ruhiy madad berish, kuy chalib xalqni jang boshlanganidan, qo'shinning qaytib kelishidan g'alaba tantanasidan, xonning chiqishidan va boshqa voqea hamda bayram, sayil va to'y tadbirlardan ogoh etishdan iborat bo'lgan. Mehtarlar o'z cholg'ulari imkoniyatiga yarasha turli navbalar chalishgan va ular navbati murattab deb ham atalgan Xorazmshoh saroyida Ustod Mahmuddek rubobchi, Zarinadek raqqosa, va xalq orasidan chiqqan Yusufbek bahodirga teng keladigan dutorchi topilmagan.²

Xorazmshohlarning hammasi bilimli kishilar sifatida shuhrat qozonishgan, ilm – fan va madaniyat taraqqiyotini ta'minlaganlar. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra ud musiqa asbobini chalishda o'z davrida shoh Alouddin Tekeshga teng keladigan kishi bo'lmagan.

Abu Abdulloh al Xorazmiy qadimgi Yunoniston, Rim, Hindiston, Xitoy, Eron, Markaziy Osiyo va Arab xalifaligi hududlarida keng tarqalgan musiqa asboblari – organun, gitara, ud, chang, g'ijjak, nay, surnay, rubob, tanburning imkoniyatlari ijro etish texnikasi, musiqa ohanglari ularning nomlari va ta'riflari, ritm(iyqo) lar va ularning turlari, maqomlar va turlicha bo'lgan ovozlarning navlari, ijrochi – musiqachi va bastakor hamkorligi to'g'risida batafsil ma'lumotlar beradi. Bu ma'lumotlarning qimmatini shundaki undan o'rta asr musulmon Sharq madaniyatining gullab yashnagan davrida musiqa san'atining ahvoli haqida to'la tasavvurga ega bo'lamiz.

Ma'mun akademiyasiga jalb etilgan Beruniy, Ibn Sino, Chag'miniy, Jurjoni kabi allomalar Xorazm maqomlarini “Duvazdah maqom” ya'ni o'n ikki maqom shaklida rivojlantirib, yilning har bir oyiga, har bir kunu tuniga bag'ishlab kuy bastaladilar. Buni IX – XIII asrlarda Xorazmga tashrif buyurgan arab sayyohlari Yoqut Hamaviy, Maqdisiy, Ibn Rusta, Ibn al Xaysamiy va boshqalar ham qayd etganlar. “Jurjoniya eli, – deb yozadi Yoqut Hamaviy o'zining “Mujam ul – buldon” nomli asarida, – o'z maqomlarini behad qadrlaydi, mamlakat poytaxti Gurganchda musiqa asboblari yasab tirikchilik qiladigan mahallalarni o'z ko'zim bilan ko'rdim”. Haqiqatan ham

²Sh. Matyoqubov “An'anaviy ijrochilik san'ati tarixi ” 18-bet

Xorazm maqomlarining ovozi yetti iqlimga tarqalgan edi, bu maqomlarni o'z yurtini tark etgan hofiz va mashshoqlar Buhoro va Samarqand, Shosh va Shirvon, Iroq va Damashq, Rum va Oltin O'rdada, Qrim va Sharqiy Turkiston o'lkalarida ijro etib yurdilar. Ulug' shoir Alisher Navoiy "Xamsa" siga kirgan mashhur "Sabbaiy sayyor" dostonida musofir sozanda tilidan Xorazm o'lkasining musiqa san'atida "Ilmi advor" fani beqiyos rivojlanganligini quyidagi misralarda yanada ravshanroq ochib beradi:

Chun duo qildi, dedi farzona
Ki dey o'z ko'rganimdin afsona
Menki tushmish buyon guzar manga,
Mulki Xorazm erur diyor manga
Sanatim anda soz chalmoq ishi,
Bilmayin men kibi ishimni kishi
Ilmi advoru fanni musiqiy
Mendin ul ilm ahli tahqiqiy.
Elga ta'lim etmoq virdim,
Kimki ustodi qavm, shogirdim.
Qildi Xorazm ahli istiqbol,
Fahm qilmoqqakim, nedur ahvol.³

Shoir aytganday Xorazm maqomlari faqatgina mafkuraviy yo'sinda bo'lmay o'z vatanidan uzoq – uzoqlarda podshoh saroylarida; to'y va bazmlarda, sayl va diyralishmalarda⁴ qayta – qayta ijro etildi. Xorazmda cholg'u ijrochiligi maktabi boshqa maktablar qatori qadimdan mavjudligiga shubha yo'q. Muhammad Rahimhon I zamonida, XIX asrning boshlarida Xorazmda musiqa san'ati o'z qaddini rostlagan, rivojlanishga yuz tutgan. Mashhur musiqashunos olim, maqomlar bilimdoni, Komil Xorazmiylarning ustози Niyozjonxo'ja maqom yo'llarini rivojlantirib, uni notalashtirishga harakat qilgan, kuylar bastalagan.

³ Alisher Navoiy. Sab'aiy sayyor. Toshkent, G'. G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa birlashmasi, 1991, 288 – 289-betlar

⁴ Xorazmda suvora ijrosiga asoslangan xonandalarning ijodiy musobaqasi diyralishma deyilgan.

Xorazm mumtoz musiqasi rivojlanishining shartli ravishda juda qadimiy va nisbatan yaqin lekin xotiramiz ilg'aydigan jonli tarixi, haqida so'z yuritish mumkin. Agar nisbatan yaqin davr Xorazm – Xiva xonligi deb yuritiladigan, ya'ni 1592-1920-yillarni o'z ichiga olsa, jonli tarix deganda Xorazm maqomlarini nota, audio yozuvlari vositasida va bevosita amaliyot ijrodagi an'analar аудио ёзувлари jarayoni sifatida kuzatish mumkin.

Ma'lumki, o'tgan asrning boshlarida yashab ijod etgan "Xorazm musiqiy tarixchasi" mualliflari davrlar taqsimotiga o'zgacha yondashdilar va uning nisbatan ikkiga ajratadilar: "birinchi davrdan maqsad shu durkim, Xorazm Musiqasining eng qorong'i zamonlarini tashkil qilg'on taxminiy mundan muqaddam besh yuz, olti yuz yillik zamonidagi xollaridir". Bu muddat ichida Xorazm musiqasini taraqqiyoti va tanazzulining tarixiy yo'llari ochiq suvratda yozilgan. Xorazmda xozirgacha mavjud bo'lgan tarixiy asarlardan ma'lumki, Xorazm poytaxti ko'hna Urganch shahridagi ma'mur va obod zamonlarda Chingizxon zabt qilmasdan ilgari, bu shaharlarda sokin bo'lg'on odamlarning aksariyati musiqani o'zlariga bir hunar va kasb ixtisos qilganlar. Buning bilan o'z oilalarining ta'minlaganlar.

Bunda Xorazm musiqasi tarixini ilmiy asosda davrlash maqsad qilingan emas, albatta. Mualliflar uchun eng muxim xotirada hali eskirmagan voqealar XIX asr boshlaridan yuzaga kelgan madaniy, xususan, maqom san'ati borasidagi uyg'onish jarayoniga umumiy ravishda soda qilib bo'lgan, xolos. Shu ma'noda "Tarixcha" mualliflari muloxazalarining e'tiborli tomonlaridan biri musiqaning ijtimoiy ahamiyati ko'tarilishi doimiy millatning umumiy madaniy-ma'rifiy yuksalishi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatib o'tishdir. Navoiy zamonini Abdurauf Fitrat madaniyatimizning "oltin davri" deb ta'riflanganligidek, Bekjon Raxmon va Muhammad Yusufklar musiqaning ma'naviy qadriyat sifatida e'zozlangan davrni "ma'mur va obod zamonlar" deb baxolaydi. Mulohazaning yana bir diqqatga sazovor nuqtasi musiqaning alohida xunar va kasb-ixtisos sifatida maydonga chiqishiga urg'u berishdir. Bu esa ustozona musiqaning rivojlanishi yo'lidagi

muxim omil, boshqacha aytganda, maqom san'atining gullab yashashi uchun zamindir.

Hukumron tabaqalarning ijobiy munosabatini qayd etish ham musiqaning ijtimoiy ahvoliga qiyosiy ishora. Zero, maqom muxlis va shonavandalar orasida joriy etiladigan xos san'at. Maqom an'analarining ijtimoiy ehtiyoj sifatida to'laqonli rivojlanishi uchun ustoz sozandalar tabaqasi hamda ularning didiga mos talabgor-eshituvchilar bo'lmog'i lozim. Iqtisodli sozandalarga talab-ehtiyoj badavlat odamlarning moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashi bilan bog'liq. Bunda xukumron tabaqaning nafis san'atlarga munosabati ular atrofida qilarga ibrat va namuna bo'lib kelgan. XVI asrda Xorazm davlati qayta tiklangandan keyin 328 yil davomida Xiva taxti 49 xon ko'rgan. Ular orasida bir hafta, uch kun, hattoki bir kun hukumronlik qilganlari bor. Ammo davlatchilik, iqtisod va madaniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shib, nom qoldirganlari ham o'tgan. Xiva tarixining ana shunday nufuzli xonlari qatorida Taniqli olim „Shajarai Turk“, „Shajarai Tarokima“ asarlarining muallifi Abulg'oziy Baxodirxon, Sheroziyxon, Muhammad Rahimxon, Said Muhammadxon, Muhammad Rahimxon II larni aytish mumkin.

Nomlari zikr etilgan xonlarning deyarli barchasi ilmu-ma'rifatga, she'riyat va musiqaga aloxida qiziqish bildirgan.

Mulla Bekjon va Muhammad Yusuf ta'biridagi „ikkinchi davr“ va undan keyingi xonlar zamoniga oid ma'lumotlarni „Xorazm Musiqiy tarixchasi“ni o'zidan topish mumkin. Undan yana bir lavha keltiraylik: „Muhammad Rahimxon 1807-1826 yillar zamonida mashxur musiqashunos Xivalik Niyozjonxo'ja degan Buxoro o'lkasina borib burundan ma'lum bo'lg'on Shoshmaqom nag'malarini tanbur bilan o'rganib Xivaga qaytgandur. Bu odamni Xivag'a galgani birla sozidag'i iqtidor va mahorati Xorazm musiqashunoslarini nazari diqqatini jalb qilg'ondur. Shul Niyozxo'jadan Muhammadjon qozi, usta Muhammadjon sandiqchi deganlar shoshmaqom degan nag'malarni tamom o'rganadurlar. Mazkurlarni o'rgangandan keyin ularni havaskor shogirtlarina ta'lim qilmoqqa boshlab xiylagina tanburchi shogirdlar yetishtiradurlar. Olarning yetishtirgan shogirdlarining har birini tafsiloti bilan anchalik o'xshar ko'rmaganimiz uchun yolg'izgina eng ahamiyatlilaridan

ba'zilarini aytmoq bilan kifoyalanamiz. Niyozjonxo'janing shogirdi Muhammadxon sandiqchidan Abdusattor maxram o'g'li ta'lim oladur. Bu odam xalq va hukumat ichinda sohib nufuz, odiiqqon bir kishi bo'lg'oni birla shoshmaqom nag'masi etkan sayin rivojlanmoqqa boshlagandur. Muhammad Rahimxon musiqaga shu darajada havasli bo'lib, nomlari zikr etilgan musiqashunoslardan murakkab bazmi majlislar yasatar edi. Muning zamonida Abdusattor Maxramdan usto Xudoybergan etikchi, undan Paxlavonniyoz Mirzaboshi Abdulla muftiy o'g'li Mutaxallusi Bil Komillar shoshmaqom nag'malarini butunilan ta'lim oladurlar. Sayid Muhammadjon 1855-yili Qutlimurodxon o'rniga xonlikka gechib tammom to'qqiz yil muddat xonlik qiladur. Muning zamonida Xorazm o'lkasi biroz tinchlanmoqqa boshlaydur. Buning natijasida xalq va xonga musiqiyga yaqinlashmoqqa boshlaganliklari ko'rinadur. Bu xonning o'zi ham dutor, g'ijjak sozlarini chertmoqqa oshno edi. Tez-tez yuqoridagi musiqashunoslardan bazm majlisleri qurdirar erdi. "Xorazm musiqiy tarixchasi" kitobidan yana lavxalar keltiramiz: „1864-yili Sayid Muhammadjon o'rniga galgan Muhammad Rahimxon soniy musiqiy ilmini cho'ng darajada xavasli bo'lib, musiqiyning ishlari muning zamonida butun-butunina boshqa bir hol kasb etadi. Burundan xalq orasinda ozroq vujudga chiqmoqina istanilgan musiqiy ishlari ortiqmoch bir suvratda tarqaladur va milliy nag'malarni vujudga chiqmoqina imkoniyat yaraladur. Xususiy mutahasis musiqashunoslar do'rab, shashmaqom nag'malarning mushkilot, tasnif qismlari ayricha ahamiyat kasb etib, mushkilot ila tasnif qismlarina taalluqli shashmaqom nag'malari burungi holidan hiylich o'zgarib, necha qo'shimchalar qo'shilib, yomaladur”.

Muhammad Rahimhon I ning o'g'li Olloqulixon (1825 – 1942/43) mohir g'ijjakchi bo'lgan deyishadi. Uning yana bir o'g'li Said Muhammadxon (1855 – 1864) musiqa madaniyatining rivojiga benihoya ulkan hissa qo'shgan hukmdordir. Musiqa san'ati, adabiyot, ma'rifat Muhammad Rahimhon I ning nevarasi, Sayyid Muhammadxonning to'ng'ich o'g'li Bobojon to'ra – Muhammad Rahimhon Soniy – Feruz zamonida (1864 – 1910) Xorazmda yanada yuksak pog'onalarga ko'tarildi. Uning yuksalish ta'siri nafaqat O'rta Osiyoga, balki butun Yevropaga ham keng yoyildi.

Xorazm musiqa terminlari asosan o'zbek xalq musiqachilari orasida ishlatiladigan umumiy terminlarga o'xshaydi. Bu terminlardan xususan quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin. Mashshoqlarni Xorazmda sozanda, ashulachilarni – go'yanda, dutor jo'rligida xalq qo'shiqlarini aytuvchilarni – talqinchi, ayol ashulachilarni – xalfa deb yuritiladi.⁵

Muhammad Rahimxon Feruz davrida Xorazm hududida 40 nafardan ziyod baxshi va 32 ta sozanda qo'shlari bo'lib, ularni har yilgi 12 kunlik sayil davrida sinovdan o'tkazar, g'olib chiqqanlar elning to'y-tomoshasida xizmat qilishga fatvo olar, mag'lub bo'lganlar esa masxara qilinar ekan.

Muhammad Rahimxon Feruz musiqa sirlaridan boxabar bo'lgan. Soz ilmi va go'yandachilik, musiqa aytim borasidagi tutgan yo'li kuyunchaklik bilan Xorazm maqomlarini tiklash, saqlash keyingi avlodlarga to'la yetkazib berish uchun intilgani ham Feruzni abadiyatga daxldor hukmdor sifatida namoyon etib turibdi. Feruz “Shashmaqom” kuylarini to'liq o'rganib, “Navo”, “Segoh”, “Dugoh” maqomlariga bog'lab 13 ta kuy bastalagan. Feruz o'zining bir muxammasida Xorazm maqomlarini birma – bir sanab ko'rsatadi:

Soz aylagil subhu maso goh “Rost” chertib, goh “Navo”

“Dugoh” u “Segoh” u, “Sabo” har birisidur g'amzudo

Rahm etmayin ul dilrabo aylar edi nozu ado,

Hijron ichra borho tortar edi ranju ano,

Bu dam tutib rasmi vafo sho'xi sitamkoring kelur.⁶

Shu o'rinda bir narsani aytib o'tishni joiz deb bilamiz, sho'ro hukumati mafkurasi hukmronlik qilgan davrida “Ustina” radifli g'azaliga Feruzning o'zi kuy bastalagani uchun uning qo'shig'ini kuylash taqiqlanib o'rniga Ogahiyning shu radifdagi ashulasi kuylanib kelindi.

Feruz saroyida Qalandar Do'nmas, Matyoqub Pozachi, Polli Duzchi, Xusin Kalot, Bobo bulamonchi, Otajon So'ta, Masharif Mahram, Safar Mahram va boshqa maqomchilaru sozandalar xizmat qilishgan. Shunisi e'tiborga loyiqki, har bir

⁵ M. Yusupov “O'zbek xalq musiqasi VII tom” 1958

⁶ Rahim D., Matrasul Sh. Feruz: shoh va shoir qismati. Toshkent, 1991. 86-bet.

sozandayu go'yandaga sozandalik shahodatnomasini Feruzning o'zi taqdim qilgan, vaqti – vaqti bilan ularning mahoratlarini imtihondan o'tkazib turgan, kimki sozni, kuyni, maqom ijrosini, talqinlarni buzsa jazolangan. Ayniqsa, maqomga bo'lgan e'tiborni kuchaytirgan va bu borada maxsus farmon ham qabul qilgan:

FARMONI OLIY

Biz kim Xorazm mamlakatining oliy hoqoni Muhammad Rahimxon soniy quyidagi farmoni oliyga imzo chekdik. Xorazm maqomlari xalqning daxlsiz mulki deb e'lon qilinsin. Ushbu farmoni oliyga shak keltirgan va maqomlarni kamsitgan, yoinki uni buzib ijro etgan kimsalar qattiq jazolansin!

Muhammad Rahim Soniy

1299 h.y. jumadul avval (1882 y)⁷

Mana shu farmonning o'ziyoq Feruzning musiqaga bo'lgan ixlosi naqadar yuksak ekanini ko'rsatadi va san'atni ko'z qorachig'iday asrashi uni buzishga yo'l qo'ymasligi yaqqol sezilib turibdi. Feruz davrida san'atga e'tibor shu darajaga yetdiki, xon farmoniga muvofiq qo'shiqlardan iborat maxsus bayozlar tuzildi, musiqiy risolalar bitildi, olti yarim maqom notaga tushirildi.

Muhammad Rahimxon saroyida ko'plab ustoz san'atkorlar faoliyat olib borar edilar . Ana shulardan biri Matyoqub Pozachi edi. U ashula aytishda va tanbur chalishda tengsiz bo'lgan. U tanburda mayin kuy taratib, barchani hayratga solardi. Mashhur Bola baxshi (Qurbonnazar Abdullaev) Matyoqub Pozachini eslar ekan: “U kishi ashula aytganda hech zo'raymasdilar. Qanday avj pardaga chiqmasin, ovozi silliq va ravon yurardi. Ashulasi tanaga yog'dek yoqardi. Hozirgi paytda hech kimning ovozi u kishining ovozlari o'xshamaydi”, derdilar.

Ijrochilik sohasida ham Xorazm xalq musiqasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'zbekistonning barcha hududlarida keng rasm bo'lgan cholg'u asboblari Xorazmda ham qo'llaniladi. Chunonchi, tanbur, dutor, tor, g'ijjak, bulamon (balaban), doira (dap), surnay – Xorazm musiqasining asosiy cholg'u asboblari hisoblanadi. Xorazmda diatonik tovushqatorli musiqa asbobi sifatida garmon (soz) chalish keng rasm bo'lgan; undan bir tovushli musiqa asbobi sifatida foydalaniladi. Xorazmlik

⁷ Komil Avaz “Olis ohanglar”, 24-25-betlar

musiqachilarning aytishicha, To'rtko'llik Ko'shak ko'r degan odam To'rtko'ldagi rus askarlaridan garmon chalishni o'rgangan ekan. Xorazmda soz (garmonchini Xorazmda sozchi deb aytadilar) deb ataluvchi garmon asosan ayollar o'rtasida ko'p tarqalgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya bilan Turkiston xalqlari o'rtasida juda katta tarixiy–madaniy ahamiyatga ega bo'lgan diplomatik munosabatlar yo'lga qo'yilib savdo sotiq ishlari olib borilgan. O'sha davrda paydo bo'lgan savdo tovarlari qatorida organun, skripka, va garmon kabi musiqa asboblari bor edi. Bu cholg'u asboblarni kirib kelishi qisqa davr ichida o'zbek xalqi madaniyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi va ular xalq sozandalari orasida ommalashib keta boshladi.

Skripka, organ va boshqa cholg'u asboblari joriy etila boshlangani haqida Mulla Bekjon Rahmon va Muhammad Yusuf Devonzodalarning “Xorazm musiqiy tarixchasi” da mana bular qayd etiladi: “Qalandar mulaqqabi Do'nmas, Muhammad Rahimxon soniyning xususiy musiqashunoslaridan bo'libBu kishi tanbur, g'irjak, dutor, surnay, bulomon, purtapiyon (fortepiano), garmon, rubob, kamon, iskripka(skripka), samtur, qovuz sozlarni chirtmoqqa mutaxasis bo'lg'oni kabi bu sozlarni ko'pisini tuzamoqni ham mukammal bilur erdi. Muning musiqadagi zakovat va iqtidorini butun musiqashunoslari ta'zim etgan edilar. Yeddi maqom nag'malarini qog'ozda o'yib organ odli sozda bekamu ko'st chirtmoqqa muvaffaq bo'lg'ondir”.⁸

Ushbu ma'lumot Yevropa cholg'ularning bizning hududimizga kirib kelishi , ularning ommalashuvida taniqli ijrochilarni o'rni ta'riflanadi.

O'zbek cholg'ulari ijrochiligi boshqa xalqlar musiqa madaniyati yutuqlari bilan ham boyidi. Dastlab bu rus havaskorlari jamiyatlari uyushtirgan damli va urma cholg'ular orkestrlari konsert repertuarlarini hamda musofir mashshoqlar chiqishlarini o'zlashtirish shakllarida namoyon bo'ldi.

⁸ Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda. O'sha asar. – B.37.



Xudaybergan Devonov foto arxivida saqlangan xivalik va rossiyalik sozandalar orkestri aks ettirilgan foto surat mavjud. Foto suratda orkestr tarkibida xalq cholg’u asboblari bilan bir qatorda Yevropa damli va zarbli cholg’ularini kuzatish mumkin.



Ushbu davrda kechgan madaniy jarayonlar Xiva xonligida yanada oshdi. Bu davrda shaharda ilm–fan, tarixnavislik, she’riyat, xattotlik, musiqa san’ati rivojlangan. Madaniy hayotning asosiy yo’nalishlaridan biri ta’lim edi.

1891-yili Xivada Komil Xorazmiy tashabbusi bilan birinchi rus –tuzem maktabi ochildi. Ushbu o’quv muassasasi ikki sinfdan iborat bo’lib, o’quvchilarga diniy va

dunyoviy bilimlar o'rgatish hamda ahloqiy tarbiya berish bilan bir qatorda, musiqa ilmi asoslarini o'rganishga ham katta e'tibor berilgan. "Xorazm tanbur chizig'i" yozuvlarini saqlab qolish va yanada ommalashuviga xizmat qilish maqsadida shu yozuv bo'yicha savod chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Xorazmda ijrochilik san'atining rivojlanishining yangi davri Matyusuf Xarratov nomidagi Urganch musiqa bilim yurtining ochilishi bilan bog'liq. Ushbu dargoh 1962-1963 – o'quv yilida o'z faoliyatni boshladi. Bilim yurtining birinchi direktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Raxmon Ollaberganov zimmasidagi ma'suliyatni yaxshi his qilardi.

Ozod Ibrohimov, Egambergan Karimov, Xojiboy Solayev, Ozod Matyoqubov, puflama va torli asboblari bo'limda dars bergan Egambergan Mo'minov, Kim Fyodor, Sergeevich, O'ktam Saloev, Karim Iskandarovlar bilim yurtining birinchi pedagoglaridan. 1965 – yilda xalq cholg'u asboblari bo'limiga Rustam Murodov, Odilbek Jumaniyozov, Abdusharif Ro'zmatov kabi yosh mutaxassislar ishga kelishi bilim yurtida yangi iste'dodlar sayqal topishida muhim ahamiyat kasb etdi.

1966 – yilda Toshkent davlat konservatoriyasini tamomlagan Povel Nikalaevich Pakning xalq cholg'u asboblari bo'limiga rubob-prima sinifi bo'yicha o'qituvchi bo'lib ishga kelishi o'sha davr uchun katta voqea edi, Pavel Nikalaevich uzoq yillar bilim yurtining xalq cholg'u asboblari orkestrini boshqarib bordi, malakali mutaxassislar tayyorlashga o'z ulushini qo'shdi. Malakali kadrlar tayyorlashda bilim yurtiga 1970-1972 yillarda rahbarlik qilgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Matniyoz Yusupov, 1972-1980 yillarda direktor lavozimida faoliyat ko'rsatgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Abdusharif Otajonov kabi ustozlar mehnati katta bo'ldi.

San'at dargohidagi ulkan voqealardan biri 1976 – yilda iste'dodli o'quvchilar jamlangan Kamer ansambilining tashkil qilinishi bo'ldi.

Bobojon Sapaev, Rustam Boltaev, Matrasul Matyoqubov, Gulchexra Muxammedova, Alisher Matniyozov, Zokir Otajonov, Odinamurod Xo'jayev, Botir Matyoqubov, Madrahim Yoqubov, Sharofat Yusupova, Tatyana Kim, Jumaboy Axmedov kabi iste'dodli o'qituvchilaridan iborat jamoa har bir saboq o'quvchilar qalbida joy olishi

uchun o'z mahoratlarini ayamadilar. Ustoz-shogird Bobojon Sapev va Xusan Masharipovlar respublika va xalqaro ko'rik-tanlovlari g'oliblari bo'lishdi. Mashhur violonchelist Aminboy Sapoevning shogirdi Komil Musaev yosh skripka va violonchel cholg'ularining birinchi xalqaro tanlovida g'oliblar safidan joy oldi. Chang sinifi o'qituvchisi Zokir Otamurodovning shogirdi Quadrat Jumaniyozov qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlar ham ulkan e'tiroflarga sazovor bo'ldi.

1986 – yilda Ozarbayjon Respublikasi poytaxti Boku shahrida o'tkazilgan Uzeir Gajibekov nomidagi 1-xalqaro ko'rik tanlovida qatnashgan o'qituvchi Bobojon Sapoev (3 – o'rin) va o'quvchisi Xusan Masharipov (2 –o'rin) tanlov laureati bo'ldi.

1987–yilda esa B.Sapoev hamdo'stlik davlatlari ikkinchi xalqaro festivali laureatligini qo'lga kiritdi. Qadamboy Musaev rahbarlik qilgan chorak asr davomida bilim yurtiga yosh o'qituvchilar ko'plab jalb qilindilar.

1990- yilda bilim yurtida “an'anaviy ijro” bo'limi faoliyat boshladi. Bo'lim talabalari

1992 - yilda Buxoro shahrida o'tkazilgan anjumanda muvaffaqiyatli ishtirok etdilar.

Mustaqillik yillarida ushbu bilim yurti Urganch san'at kolleji maqomiga ega bo'ldi.

1993-94 yillarda bilim yurti o'qituvchilari safiga oliy ma'lumotli mutaxassis yoshlar kelib qo'shildi. Davronbek Tillaev, Xamdam Rahimov, Alisher Masharipov, Alisher To'rayev, Ravshan Ahmedov, Quvondiq Abdurasulov, Maqsud Fayzullaev kabi serqirra san'atkorlar yoshlik g'ayratini ishga solib, o'quvchilarning musiqiy bilimini oshirishlariga qiziqish ko'nikmalarini rivojlantirishga xarakat qildilar. Ular bilim yurtiga olib kelgan yangi ob-havo ko'p o'tmay yangi iste'dodlarning yuzaga chiqishiga sabab bo'ldi.

1993 – yilda bilim yurti hayotida yana bir quvonchli voqea ro'y berdi. Respublika yosh ijrochilar ko'rik-tanlovida o'zbek xalq cholg'ulari bo'limi talabasi Mansur Otajonov faol ishtirok etib 3-o'rinni egaladi.

2000 – yillarda muvaffaqiyatlar ko'lami yanada kengaydi. Jumladan, Toshkent va Namangan shahrida 2003–yil mart-aprel oyida san'at o'quv yurtlari yosh ijrochilarning XVII Respublika ko'rik-tanlovida 6 ta o'quvchi sovrindor bo'ldi. O'zbek xalq cholg'ulari bilimi talabasi Oybek Ismoilov qashqar rubob yo'nalishida birinchi, Umid Yoqubov ikkinchi o'rinlarni qo'lga kiritdilar. An'anaviy ijro bo'yicha

Xamid Ismoilov tanbur jo'rligida ijro qilgan kuy 3-o'ringa loyiq deb topildi. Abdumavlon Ro'zmetov doira yo'nalishda 3-o'rinni qo'lga kiritdi. Xonandalik yo'nalishda Anvar Bekchanov, qo'shnayda Dilshod Davletov ham 3-o'rinni olishga muvaffaq bo'ldilar. Ularning bu yutuqlarida pedagoglardan Davronbek Tillaev, Mansur Otajonov, X. Polvonov, jo'rnavozlardan Nigora Najmiddinova, Olga Kim, Olga Soylarning hissalari katta bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi mustaqiligidan o'n ikki yillikiga bag'ishlab o'tkazilgan "O'zbekiston- vatanim manim" qo'shiqlar bayramida jamoa a'zolari faol qatnashdilar. Iqtidorli talabalar Xurmat Sobirov, Sultonboy Xudayberganov, Anvar Bekchanov, Mo'min Sattorov, M. Jumaniyozov, O. Abdullaev shaxar va viloyat bosqichlarida sovrinli o'rinlarini egalashga muvaffaq bo'ldilar.

Umuman, o'qituvchilarning fidoiy mehnatlari tufayli keying yillar ichida 44 o'quvchi respublika, 2 o'quvchi respublikalararo va 2 o'quvchi xalqaro ko'rik-tanlovlar g'olib va sovrindorlari bo'ldilar.

Muxtaram Prezidentimizning "Biz xech kimdan kam emasmiz, kam bo'lmaymiz" degan purlukmat so'zlari kollej jamoasini yangi muvaffaqiyatlarga undadi. To'g'rida, ta'lim olish, san'at sirlarini chuqur o'rganish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, bunday imkoniyatga faqat muvaffaqiyat va yutuqlar, g'alabalar bilan javob qaytarish yarashadi. Kollej talabalari xuddi shunday qildilar. Komil Musaev Germaniyada bo'lib o'tgan "Shizving-Golshteyn" festivalining mutloq g'olibligini qo'lga kiritdi.

Madad Xudoyberganov – Ashxabadda o'tkazilgan xalqaro musiqachilar ko'rik-tanlovi g'olibi bo'ldi.

Ochilbek Matchonov - Ukrainaning Xmelinskiy shahrida bo'lib o'tgan xalqaro yoshlar festivalining Gran Pri sovriniga sazovor bo'ldi.

Shavkat Matyoqubov – Neopol (Italiya) shahrida o'tkazilgan yoshlar festivalida sovrinli o'rinni qo'lga kiritgan.

2005–yil bo'lib o'tgan respublika ko'rik-tanlovida O. Ibragimov (qashqar rubobi), J. Sobirov (afg'on rubobi), M. Jabbarov (tanbur), Sardor Nazarov, Oybek Abdullaev (xonanda) 2-o'rinlarini qo'lga kiritdilar.

Ushbu dargohni tamomlagan sobiq talabalardan davlat mukofotlariga sazovor bo'lganlar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Jumladan: Farhod Davlatov "O'zbekiston xalq hofizi" unvoniga, Gulora Rahimova, Ortiq Otajonov, G'ofur va G'ulom Eshchonovlar "O'zbekiston xalq artisti" unvonlariga, Rahmatjon Qurbonov, Og'abek Sobirov, Ravshan Matyoqubov, Aminboy Sapaev, To'lqin Jabborovlar "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" unvoniga, O'ktam Ahmedov "Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artist" unvoniga, Matrasul Matyoqubov "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi" unvoniga, Murodbek Qilichev, Lochinbek Mo'minov, Dilmurod Sultonov, Aminzoda Jumaniyozov, Jayhun Matmurodovlar "Nihol" davlat mukofotiga, Shahlo Salaeva Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga, Rahmatjon Qurbonov, Farhod Davletov, Matrasul Matyoqubov, Shuhrat Razzoqov, Azamat Otajonov, Xurshida O'rinova, Ikrom Matanov, Mirkarim Karimov, Ochilbek Matchonov, Mansur Voisov, Shavkat Matyoqubovlar Yunus Rajabiy nomidagi respublika maqomchilar ko'rik tanlovi laureatligiga sazovor bo'lganlar.


1.2 Xorazm musiqasida cholg'u kuylarining o'rni

O'zbek xalq kuylari orasida Xorazm vohasiga xos bo'lgan kuylar o'zining jozibasi bilan ajralib turadi. Ushbu kuylar xorazmlik ijrochilar tomonidan "ustoz – shogird" an'anasi asosida o'rgatilib kelinmoqda. Quyida shu kuylardan ba'zilari to'g'risida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz.

“Saqili Navo”- («saqil»- og'ir, vazmin)- Navo maqomi turkumiga kiruvchi cholg'u kuyi bo'lib, xalq orasida «Xon chiqar» nomi bilan ham mashhurdir. Aytishlaricha, bu kuy Xiva xoni Muhammad Rahimxon II («Feruz») ning saroyga kirib kelib, taxtga o'tirish paytida ijro qilinganligi sababli ana shu nomni olgan.

Ohangni uzmasdan chalish lozim bo'lgan qismlar (frazalar) liga belgilari bilan ko'rsatilgan.

Hajmi katta bo'lganligi sababli kuyni xona, bozgo'y va raqamlar bilan belgilangan qismlarga bo'lib o'rganish zarur.

Kuyni sodda, ixcham  doira usuli bilan ijro qilish mumkin, ammo, «Xorazm tanbur chizig'i»da «Saqil»larning doira usuli quyidagicha berilgan:




“Saqili Sulton” - «Buzruk» maqomi tarkibiga kiruvchi navo bo'lib, shu paytgacha qo'shmayda ijro qilinib kelingan. Keyingi yillarda ansambl jo'rligida ham ijro etilmoqda. Sozanda va musiqashunos Qadamboy Rahimov o'zining “Xorazm mumtoz kuy va qo'shiqlari” nomli kitobida «Saqili Sulton» ni ustoz Qurbonboy aka Bobojonov ijrosidan (qisman M. Yusupov yozib olgan variant bo'yicha ham) o'rganganligini, kuy to'liq bo'lmagani uchun V va VI xonalarni dunasr⁹ shaklida o'zi qo'shganligini ta'kidlab o'tadilar.

⁹ Dunasr – maqomlarning boshlanish qismlarini yuqori pardalarda (avjda) qaytarilishidir.

“Muxammasi Bayoz” (“muxammas” - beshlik) – Navo maqomi turkumiga kiruvchi kuy bo`lib, Muxammasi Bayot deb ham yuritiladi.

Bu kuy ustoz Ollanazar Hasanov ijrosida magnit tasmaga yozib olingan.

“Xorazm tanbur chizig’i” da muxammaslar usuli quyidagicha berilgan:



“Muxammasi Ushshoq” - Rost maqomi tarkibidagi kuy bo`lib, avvallari Xorazmda har bir to`y davrasi shu kuy ijrosi bilan boshlanar edi.

“Muxammasi Ushshoq” ni – viloyat teatrining ustoz sozandalari bir qancha yillar davomida kontsertlarda va boshqa madaniy tadbirlarda ijro qilib kelishgan.

“Peshravi Dugoh” - ("peshrav" - oldinda yuruvchi, boshlovchi) eng ko`p ommalashgan kuy bo`lib, ba`zan "Muxammasi Ushshoq" bilan birga qo`shib chalinadi. Bunday paytlarda "Muxammasi Ushshoq" dan "Peshrav" ga o`tishda quyidagi kuy ixtiyoriy tempda ijro qilinadi, undan keyingi "Peshrav" esa boshidan chalinmasdan, III xonadan boshlab ketiladi.

Ixtiyoriy tempda - al libitum



¹⁰ Eslatma: "lya-diez" tovushi "si" ga yaqinroq qilib olinadi.

“Tarje’i Rost” - («tarje’» - qaytarish, takrorlash) – o`ziga xos kuy bo`lib, oddiy uch qismli shakldan iborat. Ixtiyoriy ravishda chalinadigan birinchi qismi ustoz Hayitboy aka Bobojonov ijrosida salmoqli yangragan.

Bundan tashqari Nurmuhammad Boltaev, Rustam Jumaniyazov, Sultonboy Sapaevlar ijrosida magnit tasmlarga yozib olingan.

“Tarje’i Rost” ning 1-qismi ba’zida, Xorazmda mashhur bo`lgan «Yuz bir» raqs kuyidan oldin ham ijro qilinadi.

“Hafifi Segoh” - ("hafif" – yengil) – ansambl ijrosi uchun juda qulay kuy bo`lib, III xonani nayda (ikkinchi martasida g`ijjakda) solo qilib, (ansambl bu paytda "re" notasida jo`r bo`lib turadi) ijro qilinadi.

Bu kuy Xorazm viloyati Ogahiy nomidagi musiqali komediya va drama teatrining ustoz sozandalari ijro repertuaridan o`rin olgan.

“Aliqambar” - dutor maqomlari tarkibiga kiruvchi kuy bo`lib, ansambl jo`rligida va yakkaxon tarzda ham sevib ijro qilinadi. To`ra Qilichevning «Xorazm xalq teatri» kitobida «Aliqambar»ning kelib chiqishi to`g`risida qiziq bir rivoyat keltiriladi:

«Qadim zamonda Hazrati Alining «Duldul» laqabli oti bo`lgan ekan. Ali otni boqishni Qambar ismli yosh cho`ponga topshiradi. «Duldul» kundan-kunga ozib ketayotganini ko`rgan Ali Qambarning ot boqishini zimdan kuzatadi. Qambar otni yaylovga yuborib, dutorini qo`lga olarkan-da, Ollohning butun tabiatga, Odam Ato va Momo Havoga jon kiritishi bilan bog`liq quvonch kayfiyatlaridan va sevgi-muhabbat, hayotning azob-uqubatlari bilan bog`liq qayg`u-hasratdan iborat bir kuyni chertar ekan.

Qambarning sozi ovoziga daraxtlar titrab o`ynar, ot esa o`t yeyishni qo`yib, boshini yerga qaratib, qimir etmay kuyni tinglar ekan. Qahrlangan Ali Qambarning dutorini qo`lidan olib, yerga zarb bilan uradi. Dutor yuz bo`lakka bo`linib, har tomonga uchib ketadi. Qambarning quvonchi qayg`uga aylanadi.»

Quvonch va qayg`u aralash bu qadimiy kuyga «Aliqambar» deb nom berilishiga sabab shu bo`lgan ekan.

Kuydagi quvonch kayfiyati haqida bir nima deyishim qiyinu, ammo ustozlar bu kuyni motam marosimlarida o'ta og'ir tempda ijro qilganlarini, buni eshitgan odamlarning ko'zlaridan duv-duv yoshlar to'kilganini kuzatganman. Amalda esa «Aliqambar» kuyi quvnoq ohang ruhida ijro etiladi.

“Miskin va uning uforisi” - (“miskin” - g'arib, bechora) Xorazm dutor maqomlari o'n birinchisidir. Bu kuy haqida ham kengroq ma'lumot vaunning nota matni B. Matyoqubovning “Xorazm doston ijrochiligining zarxat sahifalari” (“Xorazm” nashriyoti 1999 y.) nomli risolasida berilgan.

Hozirgi kunda Urganch san'at kollejining “Navro'z” sozandalar ansambli, Xorazm maqom ansambli tomonidan ijro etilib kelinmoqda.

“Roviy”-(«Rahoviy»- yo'l kuyi) Dutor maqomi tarkibiga kiruvchi kuy bo'lib, uning avjdagi yetishmagan qismini musiqashunos Qadamboy Rahimov dunasr shaklida o'zi qo'shgan.

“Qoradali” – qora yolli otga nisbat berilgan bo'lib, qadimgi dutor yo'llaridan hisoblanadi. Uning N. Boltayev, Y. Jabborov, Sh. Razzoqovlar tomonidan magnit tasmlariga muhrlangan namunalari mavjud. Ushbu namunalarni tinglash asarni mukammal o'zlashtirishda qo'l keladi.

“Orazibon” – asli Oraz bom – g'amgin chehra ma'nosini bildirib, dutor maqomlarining yettinchisi hisoblanadi. Dutor maqomlari hamda bu kuy haqida kengroq ma'lumot va uning nota matni B. Matyoqubovning “Xorazm doston ijrochiligining zarxat sahifalari” (“Xorazm” nashriyoti 1999 y.) nomli risolasida berilgan.¹¹

¹¹ F. Mo'minova “Xorazm dutor taronalari” 2013 102- bet

II BOB. XORAZM CHOLG'U IJROCHILIGIDA MIZROBLI

CHOLG'ULARNING TUTGAN O'RNI

2.1 Mizrobli cholg'ular va ularning tasniflanishi

Ma'lumki, Sharqda ovoz barcha cholg'u asboblarning ibtidosi deb qaralgan. Musiqiy cholg'uning mukammal va nafisligidagi bosh mezon insonning ovoz tabiatiga hamohangdir. Qo'l bilan yasalgan cholg'u asbobiga nisbatan inson ovozi mohiyatan birlamchi hamda mo'tabar hisoblangan. Ovoz-tabiiy, cholg'ular esa sun'iy musiqa asboblari deb yuritilgan. Cholg'u asbobi sozanda va ayniqsa, hofizning suyanchi va ishonchli hamrohi hisoblanadi.

Cholg'u asboblarning umumiy ko'rinishi, parda tuzulishi va tembr-akustik xususiyatlarining shakllanishi sozandalarning kasb-kor qurollarini o'zlariga moslashtirish yo'lidagi izlanish va intilishlarining samarasidir. Cholg'ularda o'rnashib qolgan parda (tovushqator)lar esa ijrochi va tinglovchilarning ko'p avlodlari tomonidan uzoq tajriba jarayonida saralangan amaliy tizim. Darhaqiqat, cholg'u asbobi bo'lmasin, mohiyatan musiqa amaliyotini takomillashtiririshga, kuy va ashulalarning jozibasini oshirishga qaratilgandir. Xalq cholg'u asboblari asrlar davomida taraqqiy topib cholg'u ijrochiligining uch navi yakka, jo'r va jamoa turlari bilan uzoq yillar davomida rivojlanib musiqiy merosimizda alohida o'rin tutib kelmoqda. Cholg'u asboblarning **torli**, **puflama** va **urma cholg'ular** guruhlaridan iborat namunalarning nomlari bizgacha yetib kelgan.

O'zbek xalq cholg'u asboblari **tirnama** (yoki tirnab chertiladigan dutor, do'mbira), **noxunli** (nohun vositasida chertiladigan tanbur, afg'on rubobi, qashqar rubobi), **torli urma** (yog'och moslamalar bilan urib chalinadigan chang) hamda **kamonli** (kamon bilan chalinadigan qo'biz, g'ijjak, sato) sozlardan iborat torli asboblarning asrlar davomida taraqqiy topib, o'zining mukammal shaklini kashf etib juda boy tasviriy imkoniyatlarga egadir.

Xorazmda asosiy musiqa asboblari tanbur bo'lib, bundan tashqari doira (dap), nay, chang, g'ijjak, dutor, qo'shnay, bulamon, sato, rubob, tor (hozirgi torlarga qaraganda ancha boshqacharoq bo'lib, dastasi uzunroq, boshi – quloqlari turadigan

joy ancha yo'g'onroq) bo'lgan. Hozirgi kunda Xorazm maqom ansambllari tarkibida barcha o'zbek xalq cholg'ularini uchratishimiz mumkin.

Ud, tanbur, rubob musulmon olamining yetakchi cholg'u asboblari hisoblanadi. O'tmsh musiqiy risolalarida mumtoz musiqaning parda tuzilmalarining nazariy va amaliy asoslari aynan ud va tanbur asbobining tovush tizimi yordamida tushuntiriladi.

Butun dunyoga mashhur *ud* cholg'usining nomi u tayyorlanadigan ashyo (shifobaxsh va hushbo'y modda ajratib olinadigan) noyob ud (shamshod) daraxti bilan bog'liq. Musulmon mamlakatlaridagi ud, Xitoyda – *piypo*, Yevropada – *lyutnya* (arabcha “*al –ud*” so'zidan olingan) nomi bilan mashhur sozning kelib chiqish tarixi islom dini paydo bo'lishidan ancha oldin rivojlana boshlagan.



Ud¹² – torli mizrobli qadimiy musiqa asbobi. Arab, turk, fors, Kavkaz (ozarbayjon, arman) va Markaziy Osiyo (o'zbek, tojik) xalqlarida keng qo'llaniladi. Katta, noksimon va yupqa qopqoqli kosaxona, kalta va enli dastaga ega. Tovushi yumshoq va mayin. Udning dastlab 4 tori bo'lganligi, Ziryob ismli (IX asr) sozanda (ayrim manbalarda Forobiy) tomonidan 5 tor qo'shilganligi ma'lum. Hozida qo'llaniladigan ud pardasiz va 11 torli. Ulardan 5 tasi juft torlardan, pastki tori bitta bo'ladi.

Ud asosan, jo'rnavoz (mumtoz musiqa ansambllari) va yakkanavoz soz sifatida qo'llaniladi. Ud cholg'u ijrochiligida Sulaymon Tahalov, Rifatilla Qosimov, Zulhor



Turopov, Rustam Karimov, Odil Orziyev zamonaga mos holda faoliyatlarini davom ettirmoqdalar.

Tanbur – asosan professional musiqachilar ishlatadigan yangroq ovozli sozlardan bo'lib, o'yma kosasi yo'g'on va uzun dastasi bilan birga yahlit tut yog'ochidan yasaladi; umumiy uzunligi 110 – 130 sm. Kosasining qopqog'i, ko'pincha, yupqa yog'och taxtachadan qilinadi, unda resonator teshikchalar bor. Pay

¹² Ud sozi xususida: I.Rajabov. «Maqomlar masalasiga doir», T., 1963. 14— 32-betlar va T.C.Вызго «Музыкальные инструменты Средней Азии» kitoblarida batafsil ma'lumotlar yoritilgan.

ip bilan bog'langan 16 –19 pardasi bo'lib, oltinchisi, odatda, ijro etiladigan asarning lad tonallik hususiyatiga ko'ra yuqori yoki pastga surib qo'yiladi. Kosa qopqog'ida cho'pdan yana 4 ta has pardasi bo'ladi. Tanburning 3 ta toridan birinchisi (yuqoridan) asosiy, 2 tasi yordamchidir; birinchisi va uchinchi unisonga, ikkinchisi ularga nisbatan kvarta, ba'zan kvinta yoki sekunda past sozlanadi. Tanbur qo'lining ko'rsatkich barmog'iga kiyiladigan noxun bilan turli uslubda (torlarni yuqoridan va pastdan urib) chalinadi. Tanbur O'zbekistonda boshqa mizrobli sozlardan farqli o'laroq, diatonik tovushqatorga ega. Tanburning torlari uzun va ingichka, pardalari yo'g'on (diametri 3mm gacha) bo'lganligidan torni turlicha kuch bilan bosib, tovush balandligini yarim tongacha o'zgartirish mumkin. Mazkur yo'l bilan tanburda kuylarga o'ziga hos tebratma sayqal, nolalar beriladi. Tanburning o'ziga hos nozik va ta'sirchan ovozi, keng diapazoni tufyli maqom ijrosida asosiy yakkanavoz va (vocal qismlarda) jo'rnavoz soz hisoblanadi.

Tanbur maqom ijrochiligida yetakchi cholg'u sifatida gavdalanadi. Tanburga hos nozik pardalar, nola va zarblar ko'p hollarda maqomotning parda va ohang hususiyatlarini ifoda etuvchisidir. Shashmaqomning parda tizimi tanbur sozida mujassamlashgan.

“Tanbur” so'zining etimologik ma'nosi haqida turli talqinlar mavjud. Shulardan biriga ko'ra u ikki ildizdan tashkil topadi: “tan” va “bur”. “Tan” tana ma'nosini, “bur” esa “buridan” – “kesish” – fe'lining buyruq maylidir. Odatda bu so'z: “yurakni tirnovchi” ma'nosi deb tushuntiriladi. Professor Fitratning “O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi” kitobida aytilgan boshqa bir taxmin bo'yicha, “tanbur” hozirda ma'lum bo'lgan o'zbek musiqa cholg'usi – do'mbiraning o'zgargan shaklidir.

Do'mbira va tanbur o'z shakllanishining dastlabki bosqichlarida bir – biri bilan juda yaqin aloqa bo'lgan bo'lsa – da, keying taqdiri turli musiqa an'alariga muvofiqligi tufayli ularning yo'llari ajralib ketdi. Hozirda o'zbek do'mbirasi baxshilar san'ati bilan bog'liq cholg'uga aylandi. Bunda u faqat bir – “ichki ovoz” uslubidagi (o'ziga hos tomoqdan aytish) dostonchilik va termalar (syujetsiz harakterdagi ashula kupletlari) ijro etishda ishlatiladi.

Fitrat tanbur haqidagi fikrlarida, “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” kitobida qaysidir bir shayboniy sozandasi Mahmud unga uchinchi tor qo‘shgani va bu cholg‘u “setor” (uch tor) ga aylangani haqida yozadi.

Setor munosabati bilan tanburning yana bir nomi “sato” haqida aytib o‘tish zarur. Hozirgi kunda ham o‘zbek sozandalari tanburni kamon bilan ijro etib, uni “sato” deb nomlaydilar va mustaqil cholg‘u sifatida ajratadilar. Sato – “setor” so‘zining uyg‘urcha talaffuzidan boshqa narsa emas, albatta.

Akustik jihatlari nuqtai – nazaridan tanburning yumshoq va yoqimli sadolari, ko‘krakdan taraladigan keng ko‘lamdagi tenor ovoziga o‘xshab ketadi. Tanbur maqomlarning o‘ta murakkab lad tizimini amalga oshirish uchun barcha zarur tovush imkoniyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Tanbur shashmaqom parda tizimining kaliti deb hisoblanishi bejiz emas. Maqom cholg‘uchiligida tanburlarning uch va to‘rt torli turlari qo‘llaniladi. Ustozlarning fikricha, uch torli tanbur qo‘shiqqa jo‘r bo‘lish, to‘rt torli esa cholg‘u ijrochiligi uchun mos va qulay hisoblanadi.

Tanbur tovushqatori uch oktavaga yaqin oraliqni qamrab oladi: kichik oktava “sol” dan – uchinchi oktava “mi” – “fa” gacha. O‘zbekistonda Risqi Rajabiy, Rasulqori Mamadaliyev, Matyusuf Xarratov, Turg‘un Alimatov, Toir Qo‘ziev, Jo‘rabek Saidaliev, Abror Zufarov, Shuhrat Xolxo‘jaev, Rustam Boltaev, Safarboy Allayarov, Sultonboy Sapaev kabi ustoz sozandalar tanbur ijrochiligini yuksak darajaga ko‘tardilar.



Dutor ko‘rinishidan do‘mbiraga o‘xshagan, ammo o‘z ijrochilik imkoniyatlari hamda tasviriy vositalari bilan undan tubdan farq qilib turadigan faqatgina havaskor xalq ijrochilari uchungina emas, balki mohir professional sozandalar ijro qiladigan qadimiy cholg‘u asboblardan biridir. Noksimon kosaxonasi o‘yma yoki qovurg‘ali bo‘lib, unga yopishtirilgan nisbatan uzun va ingichka dastasiga yupqa qopqoq yopishtirilgan. Kosaxonaga o‘rnatilgan nisbatan uzun dastasida esa qo‘shpay yoki ipak torlaridan ikki o‘rama qilib bog‘langan pardalar mavjud.

Odatda, pardalari 13 ta bo'lib, ular ikki oktavadan ortiqroq diapazonli to'la xromatik bo'lmagan tovushqator hosil qiladi. Dutorning ikkita ipak tori kvarta, kvinta yoki unison (oktava) ga sozlanadi. Dutorda ham asosiy ijro usuli do'mbirada bo'lganidek tirnamadir. Ayni vaqtda dutor ishlatiladigan shtrixlarga boyligi, o'ng qo'l barmoqlari hamda panjani ishlatishdagi uslublarning rang – barangligi bilan ajralib turadi.

Oldinlari Xorazm mumtoz musiqasining bosh cholg'usi va "kaliti" dutor bo'lgan. Dutor tabiatan "xonaki" (kamer) sadolanuvchi cholg'u. Bunday deyishimizga uning barcha sifatlari to'g'ri keladi: barmoq uchi bilan ohista chalish to'g'rirog'i nozik sado beruvchi ipak torlarni qo'lda yumshoq "silab" tovush chiqarish. Xorazm dutor ijrochiligi haqida ikki og'iz to'xtaladigan bo'lsak: bu o'lkada ikki xil dutor qo'llanilib, ularning birisi kalta, ya'ni uzunligi 97 sm, ikkinchisi uzun, ya'ni bo'yi 130 sm va undan ortiq dutorlardir.

Bu cholg'ular tut yoki o'rik yog'ochidan yasaladi. Ular qovurg'ali – dilma dutor va o'yib ishlangan – qazma dutor deb yuritilgan. Qopqog'i ya'ni dekasi esa tut yog'ochidan yupqa qilib ishlanadi. Dutorlarning ikkalasi ham zir, ya'ni yuqori sozlanuvchi tori kichik oktava re va bom, ya'ni past sozlanuvchi torlari katta oktava sol yoki lya ba'zan qo'shtor qilib ham sozlanadi. Dutor ikki xil sozlanishining sozandalar tilida o'z atamasi bo'lib, bular ochiq torning bir–biriga nisbatan kvinta sozi "Aliqambar duzum", kvarta sozi "Miskin duzum" deb ham yuritiladi. Dastalaridagi parda boylamlari qo'yning ichagidan tayyorlangan iplar bilan bog'langan. Pardalarning soni ikkala dutorda ham bir xil va diatonik tovushqatomni hosil qiladi.

Xorazmda dutor ijrochiligi o'ziga xos bo'lib, unda o'ng qo'l zarblari rez usulidagi uzluksiz – davomiy ijrosi bilan ajralib turadi. Shuningdek har bir kuchli hissani bo'rttirib o'ng qo'lning to'rt barmog'i va jimjiloqni qopqoqqa tekkizib, tirnab va chertib ijro qilish asosiy hususiyatlaridan hisoblanadi.

Dutorning o'ng qo'l zarblari Xorazmda "dast" deyiladi. Ular o'z ichida kuy va usul bo'laklarini murakkab va eng jozibali jihatlarini birlashtirgan. Keksa sozandalarning aytishlaricha, doira ham usulni dutor zarblaridan o'rganar ekan.

Xorazmda ushbu cholg'u uchun maxsus dutor maqomlari yaratilgan va ijro qilib kelingan. Dutor maqomlari Xorazm musiqiy tarixchasida quyidagi tartibda beriladi: Iroq, Chapandoz, Mo'g'ulcha, Navo, Sadri Iroq, Rovi, Orazi bam, Tashniz, Majnun dali, Ohyor, Miskin kabi 11 ta cholg'u asrni tashkil etadi. Bulardan o'n birinchi maqom Miskin deb yuritiladi va ikki qismdan iborat. Xorazm vohasida ijrochilik sohasida Nurmuhammad Boltaev, Yusuf Jabborov, Shuhrat Razzoqov, Mirkarim Karimov, Farog'at Mo'minova, Umid Boltaevlar mohirlik darajasiga erishganlar.

XX asr 40 – yillarining oxiri 50 – yillarning boshlanishi davlat ta'limi sohasida xalq cholg'u asboblari yangi ijrochilik yo'nalishini joriy etish vaqtiga to'g'ri keldi. Boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim tizimida o'zbek milliy cholg'u asboblari (tanbur, dutor, g'ijjak, nay, chang va boshqalar) da ko'proq yevropa, rus va o'zbek kompozitorlarining asarlarini ijro etish birinchi navbatdagi vazifa etib qo'yilgan edi. Ana shu jarayonda qashqar rubobi eng ko'p qo'llaniladigan milliy asboblardan qatoridan o'rin egalladi.



Qashqar rubobi yarim doira shaklidagi dumaloq o'yma kosaxonasining usti teri bilan qoplangan bo'lib uning yo'g'on va uzun dasta o'rnatiladigan qismi yon tomonlaridan chiqib turadigan ikkita yog'och shoxchalari ushbu cholg'uning harakterli belgisi sifatida ko'zga tashlanadi. Qashqar rubobi torlarinign soni beshta: uchasi ipakdan (yoki paydan), ikkitasi simdan (hozirga paytda hammasi har xil yo'g'onlikdagi simdan) dir. Ular kvarta – kvintaga sozlanadi. Rubob dastasiga uch oktava hajmidagi to'la xromatik tovushqator hosil qiladigan 19 –23 ingichka pay parda bog'langan (hozir esa deyarli hammasining dastasiga 24 ta metall qalamchalar yopishtirilgan) bo'ladi. Oddiy mediator (mirzob, noxun) bilan afg'on rubobidek chalinadi. Bundan tashqari, Darvesh Alining “Risolaiy musiqiy” asarida musiqa asboblari xususida to'xtalib, rubobning Balxda yasalgani, Muhammad Xorazmshoh zamonida Xorazmda rivoj topgani qayd etilgan¹³. Xorazm viloyatidan Hayitboy

¹³ A. Fitrat “O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi”, 29-bet.

Bobojonov, Rustam Jumaniyozov, Ortiq Otajonov, O'ktam Ahmedov, Bobojon Sapaev, Xusan Masharipov, Azamat Otajonov, Zokir Boltaev, Og'abek Sobirov, Mansur Otajonov, Mansur Voisov, Azamat Abduqodirov, Umid Yoqubov, O'tkir O'rinov, Odilbek Ibragimov, Doniyor Bekturdiyev, Anvar Ozodov kabi mashhur sozandalar yetishib chiqqan.



Tor – Xorazmda rubob deb yuritiladigan cholg'u asbobi to'g'risida ham gapirib o'tish kerak bo'ladi. Tor Xorazmda XX asrning 20-yillaridan rasm bo'lgan deyish mumkin. Dastlab torning tovushqatorini musiqachilar diatonik qilib o'zgartirganlar. Hozir esa torning 17 bosqichi o'zgarishsiz qoldirilib, ijro etiladigan qo'shiq uchun keraklisi olinadi.¹⁴ Xorazmda oldinlari dostonlar dutor jo'rligida kuylangan bo'lsa XX asrning 30 – yillaridan boshlab, tor asbobi jo'rligida ijro etila boshladi.

O'z davrining mohir sozandalaridan biri Qalandar Do'nmas bo'lgan. U tanbur, dutor, g'ijjak, bo'lamon, santur, rubob, qo'biz, soz(garmon), skripka va hatto fortepianoda ham kuylar ijro etgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Qalandar Do'nmas Xorazmcha torning ijodkori bo'lgan. Kunlardan birida navbatdagi saroy bazmida bir ozarbayjonlik sozanda tor chaladi. Unda yangragan kuy Muhammad Rahimhonning ko'ngliga yoqib tushadi. Xon tezda Qalandar Do'nmasga o'xshash asbob yasab, Xorazm kuylarini ijro etishni buyuradi. Qalandar Do'nmas ko'p o'tmay o'sha tor andozasida yangi asbob yaratadi. Uning parda ovozlari tanbur va dutornikiga mos qilib bog'laydi. Ushbu cholg'u asbobidan taralgan kuy ozarbayjoncha yo'ldan farqlanib, aynan tanbur va dutorga xos zarb va nolalar taratgan. Bola baxshi ma'lumotlariga asoslanib, O. Matyoqubovning yozishicha, Qalandar Do'nmas yaratgan cholg'u asbobi rubob (tor) kashfiyotchi vafotidan so'ng shogirdi Devon

¹⁴ M. Yusupov "O'zbek xalq musiqasi" VII tom 1959

bobo (Abdulla Otajonov) qo'lida qoladi. Shunday qilib, torning yangi bir nusxasi dunyoga keladi. Unga "rubob" deb nom beradilar. Shu tariqa bu cholg'u asbobi nafaqat saroy sozandalari, balki el sozandalari orasida, baxshi va go'yandalar(diniy mavzularda "Suvora" yo'llarini ijro etuvchilar) orasida chalina boshlangan. Xorazm maqomlarini tanburda emas, rubob (tor) jo'rligida ijro etishni mashxur san'atkor Xojixon Boltaev boshlab bergan.¹⁵

Tor asbobi ikki ya'ni qo'shkosali musiqiy asboblarning sirasiga kiradi. Tor cholg'usi ko'p mamlakatlarda: Ozarbayjon, Armaniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston va ba'zi arab mamlakatlarida sevib chalinadigan musiqiy asbobdir. Ularning ko'pchiligi torni "Bizning musiqiy asbobimiz" deyishadi.

Torning imkonoyatlari shunchalik kengki, yuqorida sanab o'tilgan mamlakatlarning milliy kuylarini tarannum etishda, bu cholg'u bimalol talabga javob bera oladi. Shunisi qiziqki, dutor, setor, chiltor, va tor cholg'ulari nomining negizini "tor" so'zi tashkil etadi.

Tor Ozarbayjonda keng tarqalgan bo'lib, hatto o'quv dargohlarida tor o'rganish sinflari bor. Turkiya va Eronda ham huddi shunday. Tor cholg'usi qaysi millatning musiqiy asbobi? Ayrim olimlar tor bundan taxminan 150 yil burun Eronda yaratilganligi haqida, ma'lumot berishgan. Tarix ashyoviy dalillarga tayanib ish ko'radi. Dalillarga murojaat qilsak, "Qo'sh kosali" cholg'u asboblari mamlakatimizda qadimdan borligi ma'lum bo'ladi.

Ayritomda olib borilgan qazilma ishlari natijasida eramizning birinchi asrlarga oid madaniy yodgorliklar ichida "qo'shkosali" cholg'u asbobi aks etgan yodgorliklar topildi.

Olovuddin Muhammad Xorazmshoh (1200-1220) saroyida tor, ya'ni "qo'sh kosali" asbob chalib mashhur bo'lgan ustoz Mahmud haqida tarixiy ma'lumotlar bor.

Temuriylar va Shayboniylar davrida yaratilgan miniatyuralarda tor shaklidagi cholg'ularning aks ettirilganligi, uzoq o'tmishimizda torning Movaraunnahr va

¹⁵ Matyoqubov O. "Maqomot" Toshkent, Musiqa nashriyoti 2004, 73-74-bet

Xorazmda bo'lganligi va bu cholg'u sozandalar tomonidan istifoda qilinganligidan dalolat beradi.

Bunday cholg'ularni qadimda “qo'shkosa”, “ikki kallali rubob” deb atashgan. Bu atamalar hozirgacha Xorazm san'ati shinavandalari tomonidan qo'llanadi.

Tor Xorazmda sozandalar va suvoralarni ijro etuvchi xonandalar tomonidan qo'llanilib kelingan. XIX asr oxiri va XX asrdan san'atimizning mashhur ustunlari bo'lmish Polli Duzchi, Qurbonnazir Abdullaev (Bola Baxshi), Madrahim Sheroziy, Qalandar Do'nmas, Otajon Devon, Xojixon Boltaev, va Komiljon Otaniyozovlar qo'lida tor bilan suvoriy va dostonlar kuylab, xonandalik qilganlar. Bu an'ana hozirgi kunda ustozlik darajasiga yetgan hofizlarimiz tomonidan davom ettirib kelinmoqda.

Tor sozining Toshkent va Farg'ona vodiysida ham rusum bo'lganligi barchaga ma'lum. Biz san'atimizni qo'lida tor ushlab ashulalar kuylagan Muhammadjon Karimov, aka-uka Shojalilovlar, Tavakkal Qodirov, Faxriddin Umarov, Komiljon Baratov, Qobiljon Yusupov va tor chalishda o'z uslubiga ega Kamoliddin Rahimov, Ma'murjon To'xtasinovlarsiz tasavvur eta olmaymiz.

So'nggi yillarda esa Xorazmda Hayitboy Bobojonov, Odamboy Rahimov, Ortiq Otajonov, O'ktam Ahmedov, Rahmatjon Qurbonov, Azamat Otajonov, Og'abek Sobirov, Ochilbek Matchonov, Azamat Abduqodirov, Mansur Otajonov, Feruz Qurbonboyev, shuningdek, Toshkent va Farg'ona vodiysida esa Rustamqori Tursunov, Bahrom....., Habibulla Shamsiyev, Rustam Karimov, Ma'murjon Zilolov kabi sozanda va xonandalarimiz tor cholg'usi sadolarining o'zgacha uslubda jarang sochishiga o'z hissalarini qo'shganlar va qo'shib kelmoqdalar.

Tor haqida ma'lumot berar ekanmiz, diqqatingizni bir qiziqarli voqeaga qaratmoqchiman. Xorazmda 1997 – yilda Xumbuztepada olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida bir nechta kichik haykalchalar topilgan.

Bular orasida eramizdan oldingi VI – IV asrlarga taalluqli bo'lgan, qo'lida “qo'sh kosali” cholg'u ushlagan kishining haykalchasi juda noyob topilmadir. Bu haykalcha tor musiqa asbobining asl vatani O'zbekiston deb xulosa chiqarishimiz uchun yetarli dalildir.

Xumbuztepa arxeologik yodgorligi bo'lgan bu haykalchalar misolida yurtimiz naqadar uzoq va ulkan tarixga ega ekanidan faxrlanamiz. Yurtboshimizning Xivada Ma'mun akademiyasi ochilishida qilgan ma'ruzalarida: "Xorazmning yetti ming yildan ortiqroq tarixi bor. Buni kim inkor qila oladi", deganlari bejiz emas.¹⁶

¹⁶ Qurbonov R. "San'atning sirli olami", San'atnoma I 2011 10-17-betlar

2.2 Mashhur ijrochi-sozandalar

Raxmon OLLABERGANOV (1910-1986)



Urganch musiqa bilim yurti asoschisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Raxmon Ollaberganov 1910 yilda Xiva shahrida san'atkorlar oilasida tavallud topgan. Bolalikdan musiqaga mehir qo'ygan o'spirin 1923 yili Xivadagi maktabning skripka bo'limida taxsil oladi. O'sha paytlari zamonaviy musiqa ilmini egallagan yoshlar kamchilikni tashkil qilardi. Raxmon Ollaberganovdagi intilish va iste'dodni payqagan mutasaddilar uni 1928 yilda Samarqand shahrida yangi ochilgan musiqa va xoreografiya institutiga o'qishga yuborishadi. M. Ashrafiy, M. Burxonov, M. Nasimov, T. Sodiqov, M. Leviev, Sh. Ramazonova, kabi yorqin iste'dod soxalari bilan bir safda taxsil olgan Raxmon oliy o'quv yurtini tamomlagach, o'z hayotini Xorazm musiqa san'atini rivojlantirishga bag'ishlaydi. Raxmon Ollaberganov 100 dan ortiq janirlarda qo'shiqlar, bolalar uchun asarlar yaratgan. 1962 yil Raxmon Ollaberganovning say'i-xarakatlari bilan Matyusuf Xarratov nomidagi musiqa bilim yurti tashkil etildi. Birinchi g'isht puxta qo'yilsagina, devor mustaxkam bo'ladi deyilar. O'zi asos slogan bilim yurtining oyoqqa turishi, yurtimizda musiqa ilmining rivoji uchun direktor ko'p mexnat qildi. Bilim yurti san'at qoshonasi, bastakorlarning ustози sifatida minglab qalblardan joy egalagan inson. Raxmon Ollaberganovdan nafaqat bilim yurti va ko'plab shogirdlar, balki ajoyib farzandlar ham qoldi. U kishining ishlarini o'g'li Ismoil Ollaberganov davom ettirib, bir necha yillar bolalar musiqa maktabida direktorlik vazifasida ishladi, yoshlarga ta'lim-tarbiya berib, musiqa ilmi rivojiga o'z ulishini qo'shdi.

Raxmon Ollaberganovning ulkan xizmatlari uchun “ O'zbekiston xizmat ko'rsatgan san'at arbobi” unvoni bilan taqdirlandi.

Matniyoz YUSUPOV (1925-1992)

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, (1967-1972 yillarda bilim yurti direktori bo'lgan)



Musiqani hayot mazmuni deb bilgan, ilm rivoji uchun borlig'ini baxshida qilgan insonlardan biri Matniyoz Yusupovdir. U 1925 yilning 1 yanvarida Urganch tumabida tug'iladi.

Yorqin iqtidor soxibi bo'lganligi tufayli 15 yoshida viloyat estradasiga musiqachi bo'lib ishga kiradi. Birinchilar safida ikkinchi jaxon urishiga otlangan M. Yusupov 1943

yili nogiron bo'lib, bir oyog'idan ajralib qaytadi. Uni viloyat teatriga ishga taklif qilishadi. Bu yerda Xudaybergan Muxrkaning o'g'li Matpano otadan Xorazm maqom yo'llarini o'rganadi. U moxir g'ijjakchi sifatida ham taniladi. 1951 yili Xamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtiga o'qishga kirib, bu dargoxni muvaffaqiyati tamomlagach 1955 yili Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik faqultetiga o'qishga kiradi va uni kompozitor Zeydman rahbarligida 1960 yili tugatadi. Matniyoz Yusupov konservatoriyada o'qigan yillari drama asarlariga musiqa bastalaydi. 1961 yili uning "G'azal fojiiyasi" musiqiy asari saxnalashtirildi. Shuningdek, Xamid G'ulomning "Dil ko'zgusi", Ayyomiyning "Tun va Noxun", Xayitmat Rasulning "Muqaddas diyor" va boshqa qator dramalariga kuylar bastaladi. U ustozlardan yozib olgan Xorazm maqomlarining 1-2 jildlarini 1959-1960 yillari chop qildirdi.

Matniyoz Yusupov 1961 yildan boshlab O'zbekiston radiosida katta muxarrir, undan keyingi yillarda M. Uyg'ur nomidagi Toshkent san'at institutida va A. Qodiriy nomidagi Toshkent madaniyat institutlarida ustozlik qilib, professor ilmiy darajasini oladi. Ulkan olimning M. Xarratov nomidagi musiqa bilim yurtiga direktor qilib tayinlashi uning ravnaqida muhim ahamiyat kasb etdi. M.Yusupovning eng barakali ijod maxsuli sifatida 5 jildda "Xorazm maqomlari" ning 1980 yili chop etilgan.

Bastakor 1992 yilda vafot etgan. U kishidan qolgan ulkan musiqiy meros, darsliklar bugun ham ulkan musiqachilarning kamolga yetishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

M. Yusupovning samarali mehnatlari “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi” yuksak unvoni bilan munosib baholangan.



Abdusharif Otajonov

(1924-1988)

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, Respublika kompozitorlar va bastakorlar uyushmasining a‘zosi, Ulug‘ Vatan urushi qatnashchisi.

Ogahiy nomidagi Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatri sahnasida 1959-1985 yillar davomida qo‘yilgan 20 dan oshiq spektakllarga musiqa bastalagan. 20 dan oshiq vokal-xoreografik, cholg‘u va xor asarlari, yuzlagan qo‘shiqlar, kupletlar va raqs kuylari muallifi. Chang va simfonik orkestr uchun konsert; solist, xor va orkestr uchun “Xorazm” vokal-xoreografik poemasini yaratgan. O‘zining tashkilotchilik va ijodiy faoliyati bilan o‘zbek professional musiqa san'atining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan mehri daryo, olijanob inson.



Hayitboy Bobojonov.
(1930-1980)

1943 yildan umrining oxirigacha Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatrida sozanda, musiqa bo'limi boshlig'i, dirijor va bosh dirijor lavozimlarida ishlagan. Nihoyatda kuchli xotiraga ega bo'lgan usta sozanda, bastakor va dirijor.

Bastakor sifatida «Navro'z» vokal-xoreografik syuitasi, «Alangali yillar», «Shayton qiz» musiqali dramalari, «Xorazm tongi», «G'uncha» nomli cholg'u kuylari va boshqa musiqa asarlarini yaratgan.



Qurbonboy Bobojonov
(1912-1993)

Qo'shnay, surnay va bulomon kabi puflama cholg'u asboblarining mohir ijrochisi.

Uzoq yillar davomida Ogahiy nomidagi viloyat teatri orkestrining sozandasi bo'lib xizmat qilgan.

Ko'pgina Xorazm cholg'u yo'llari Q. Bobojonov ijrosida Respublika radiosining oltin fondiga yozib olingan.



Ollanazar Hasanov.
(1923-1997)

G`ijjak, dutor, tanbur kabi sozlarning mohir ijrochisi, maqomdon ustoz.
O`ziga xos ijro uslubiga ega bo`o`lgan mashhur sozanda.

Xorazm maqomlarining cholg`u va aytim qismlarini aksariyatini, shuningdek,
ko`pgina Xorazm kuy-qo`shiqlarini yoddan bilgan.



Karim Iskandarov
(1924-2000)

Uzoq yillar davomida viloyat musiqali drama va komediya teatri orkestrida
sozanda (g`ijjakchi) bo`lib faoliyat ko`rsatgan.

Shovot tumanidagi «Oq oltin» jamoa xo`jaligida havaskor yoshlarni to`plab,
ashula va raqs ansambli tashkil qilib, bir qancha yillar davomida unga rahbarlik
qilgan.



Ahmadjon Ismoilov
(1928 – 2014)

Ijodiy mehnat faoliyatini Ogahiy teatrining orkestrida sozandalikdan (doirachi) boshlab, shu yerdan qarilik nafaqasiga chiqqan.

1966 yilda viloyatning o`quvchilar saroyida respublikada birinchi bo`lib havaskor doirachilarning ansamblini tashkil etgan.

1967 yilda M. Xarratov nomidagi Urganch shahar musiqa bilim yurtida doira sinfi tashkil qilib, bu erda bo`lg`usi doirachilarga ustozlik qilgan.



Baxtiyor Safoev
(1946-1996)

1962- 1980 yillar mobaynida Ogahiy teatri orkestrida sozanda (changchi) vazifasida xizmat qilgan.

1975 yildan umrinig oxirigacha R. Olloberganov nomidagi musiqa maktabida yosh sozandalarga ustozlik qilib,

chang va dutor sinflari bo`yicha saboq bergan.



Sattor Abdullaev

(1920-1980)

Ko`p yillar davomida Ogahiy teatrining orkestri tarkibida sozanda (naychi) vazifasida ishlagan, bir qancha shogirdlar yetishtirgan. Nay asbobida o`ziga xos ijro uslubiga ega bo`lgan ustoz sozanda.




Egambergan Qozoqov


1935-2014

M.Qori-Yoqubov nomidagi O`zbek Davlat filarmoniyasining «Bahor» va «Xorazm» ansambllarida, Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat teatrida sozanda (naychi) bo`lib ishlagan.

Hozirgi davrda viloyat televideniya va radio komiteti qoshidagi maqomchilar ansamblida faoliyat ko`rsatib kelmoqda.

Xorazmlik xonanda va sozandalar shajarasi





2.3 Tajriba sinov (tanlov – festivallar va konsert ijrochilik) ishlari va ularning natijalari

Bugungi kunda xalq cholg'ularida ijrochilik kafedrasida ta'lim olayotgan talabalar kelajakda yetuk mutaxassislar, musiqa o'qituvchilari va yakknaveoz ijrochi sozandalar bo'lib yetishib chiqmoqdalar va barcha viloyatlarda o'zlarining faoliyatlarini davom ettirib kelmoqdalar/ Buning natijasida ta'lim sifati va ijrochilik san'ati kundan –

kunga rivojlanib taraqqiy etib bormoqda. Bu respublikamiz miqyosida turli festivallarni misol qilib aytadigan bo'lsak, har ikki yilda o'rta – maxsus san'at kollej, litseylar o'rtasida o'tkaziladigan “Yosh ijrochilar” tanlovinin olishimiz mumkin. Bu

tanlovda o'zbek xalq cholg'ularinina barcha turlari bo'yicha yosh sozandalar, talabalar qatnashib o'zlarining mahoratlarini orttirib kelmoqda. Bunda albatta o'qituvchi sozandalarning xizmatlari katta. Eng ahamiyatlisi shundaki yosh ijrochilik mahorati o'sibgina qolmay ijrochilik san'ati ham taraqqiy etib boradi. Shuningdek

har yili o'tkazilib kelayotgan “Navro'z sadolari” xalq cholg'ulari ansambl va orkestrlari festivali ham bu yo'nalishning taraqqiyoti muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu festivalda yildan – yilga ijrochilik mahorati oshib borayotganligi, uning qamrovi kengayib borayotganligi, qatnashchilar sonining ko'payib borayotganligini ta'kidlab o'tish joiz. Chunki, bog'cha tarbiyalanuvchilaridan tortib maktab, kollej, san'at o'quvchilari, oiliy ta'lim talabalari va o'qituvchilari o'zlarining bir – biridan qiziqarli va rang – barang dasturlari bilan qatnashib kelmoqda.

Shu o'rinda respublikamizda 2014-yil ilk bora o'tkazilgan “Ona yurt ohanglari” I xalqaro tanlovini alohida ta'kidlab o'tish lozim. O'zbekiston, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Ozarbayjon kabi mamlakatlardan nufuzli hay'at a'zolari taklif etildi. Ikki turdan iborat ushbu nufuzli tanlov yuqori darajada tashkil etildi. Bunda yosh sozandalar g'oliblik uchun kurash olib bordilar. Sunga o'xshash 2015-yil aprel oyida o'tkazilgan “Navro'z sadolari” I xalqaro ansambl va orkestrlar festivalini, konferensiyani aytib o'tish mumkin. Bundan tashqari xalq cholg'ularida ijrochilik masalalariga bag'ishlangan 2015-yil fevral oyida o'tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy konferensiyada 100 dan ortiq mutaxassislar o'z tadqiqotlari bilan qatnashdilar. Kerakli xulosalar taqdim etilib, o'zaro fikr va tajriba almashdilar. Bu kabi qo'llangan

tadbirlar o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda yaratilgan uzluksiz ta'lim tizimining uzviy bo'lagi bo'lgan musiqa ta'limining yanada takomillashib dunyoning eng mukammal musiqiy ta'lim tizimiga aylanib borayotganligini xulosa sifatida yana bir bor ta'kidlash mumkin. Chunki mamlakatimizda davlatimiz va hukumatimiz tomonidan bu sohada olib borilayotgan ishlar buning yaqqol isbotidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: “Ma’naviyat”. 2008
2. A. Fitrat “O’zbek klassik musiqasi va uning tarixi” – Toshkent 1927 (1993 qayta nashr)
3. M. Yusupov “O’zbek xalq musiqasi VII tom” Toshkent 1959
4. I. Rajabov “Maqomlar masalasiga doir” – Toshkent 1963
5. T. E. Solomonova “O’zbek musiqasi tarixi” – Toshkent, “O’qituvchi”. 1981
6. Rahim D., Matrasul Sh. “Feruz: shoh va shoir qismati”. Toshkent, 1991
7. A. Navoiy. Sab’aiy sayyor. Toshkent, G’. G’ulom nomidagi nashriyot – matbaa birlashmasi, 1991
8. S.Hasanov “Xorazm ma’rifati – olam ko’zgusi” Toshkent – “O’qituvchi”. 1996
9. K. Avaz “Olis ohanglar” – Toshkent, G’. G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti 1997
- 10.O.Matyoqubov “Maqomot” – Toshkent 2004
11. B.Matyoqubov “Doston navolari” – Toshkent 2006
12. M. Matyoqubov, S. Begmatov “O’zbek an’anaviy cholg’ulari” – Toshkent 2006
- 13.Q.Rahimov “Xorazmning mumtoz kuy va qo’shiqlari” Toshkent 2006
- 14.O. Nazarov “Qashqar rubobida o’qitish uslubi” – Toshkent 2008
15. O.Hayitova “Xorazm qo’shiqchilik san’ati durdonalari” – Toshkent, “Noshir”. 2009
- 16.R.Qurbonov “San’atning sirli olami” San’atnoma I – Toshkent 2011
17. Bobojon Tarroh – Xodim “Xorazm shoir va navozandalari” – Toshkent, “Tafakkur qanoti”. 2011
- 18.M. Bekjon Rahmon o’g’li, M. Devonzoda “Xorazm musiqiy tarixchasi” – 1925 (qayta nashr Toshkent, “Mumtoz so’z”. 2014)
- 19.Sh. Matyoqubov “An’anaviy ijrochilik san’ati tarixi” Toshkent 2015
- 20.Sh. Matyoqubovning Mash’al radiosidagi “Mumtoz navolar” eshittirishlari

O'zbekiston davlat konservatoriyasi “Xalq cholg'ularida ijrochilik” kafedrası
bakalavri Djumaniyazov Umrbekning
“Xorazm cholg'u ijrochiligida mizrobli cholg'ularning tutgan o'rni”
mavzusidagi Bitiruv malakaviy ishiga
ILMIY RAHBAR XULOSASI

Xalq cholg'u ijrochiligi ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Djumaniyazov Umrbek ixtisosligi bo'yicha dasturda belgilangan tartibda barcha darslarida faol qatnashdi. Reja asosida qo'yilgan barcha talablarni bajardi. Ta'lim jarayoni mobaynida xalq cholg'u ijrochiligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha qo'yilgan talablarni to'liq bajardi.

O'qish davomida “Xorazm cholg'u ijrochiligida mizrobli cholg'ularning tutgan o'rni” mavzusidagi bitiruv malakaviy ish yozdi. Mazkur bitiruv malakaviy ishida mavzuga doir ilmiy manbalarni tahlil etish va nazariy jihatdan uslubiy muammo sifatida asoslash, o'quvchi-yoshlarni mustaqil ta'lim asosida ijrochilik mahoratini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini pedagogik- psixologik jihatdan yoritish, ijro dasturidagi asrlarni tahlil etish orqali o'quvchi – yoshlarni mustaqil ta'lim asosida cholg'u ijrochiligi mahoratini rivojlantirishning uslublarini ishlab chiqishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Djumaniyazov Umrbek tomonidan yozilgan bitiruv malakaviy ish mustaqil bajarilgan, qo'yilgan vazifalar amalga oshirilgan. O'zbekiston davlat konservatoriyasida olgan malakalari yosh avlodni tarbiyalashda va ma'suliyatli pedagogik faoliyatida katta yordam bo'ladi deb o'ylayman. Mazkur malakaviy ishni ijobiy baholayman va qabul qilishga tavsiya etaman.

Ilmiy – ijodiy rahbar:
“Xalq cholg'ularida ijrochilik”
kafedrası dotsenti

O. Nazarov

**O'zbekiston davlat konservatoriyasi “Xalq cholg'ularida ijrochilik”
kafedrasi bakalavri Djumaniyazov Umrbekning
“Xorazm cholg'u ijrochiligida mizrobli cholg'ularning tutgan o'rni”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

TAQRIZ

Mazkur malakaviy ish: kirish, Xorazm cholg'u musiqasi taraqqiyoti hamda ijro dasturiga kiritilgan asarlar tahlili, ularning mualliflari haqidagi bo'limlardan iborat.

Muallif o'z malakaviy ishida Xorazm cholg'u ijrochilik musiqasi tarixiy evolyutsiyasi, ushbu madaniyatning yetuk namoyandalari hamda yorqin asarlar xususida birmuncha to'liq ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Turli harakterdagi asarlarni nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularning ijro usullari va o'ziga xosliklari haqida atroflicha fikr yuritadi. Quvonarlisi shuki, cholg'u ijrochilik yo'nalishi talabasi o'z ijro dasturi asosida nazariy va ilmiy mulohazalar yuritib, muayyan xulosalarni bayon etdi.

Xorazm cholg'u irochilgi bo'yicha ilg'or tajrialarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish, mizrobli cholg'ular ijrochiligi uchun repertuar tanlash prinsiplarini ishlab chiqish va uni takomillashtirishda o'zbek xalq cholg'u ijrochilari va bastakorlari asarlaridan foydalanish tizimini ishlab chiqish yuzasidan o'zining xulosalarini berib o'tgan.

Muallif mavzuni yoritishda turli xil adabiyotlardan foydalangan. Mazkur malakaviy ishni ijobiy baholayman va qabul qilishga tavsiya etaman.

**Taqrizchi: “Xalq cholg'ularida ijrochilik”
kafedrasi o'qituvchisi**

Q. Bozorov